Azotli o‘g‘itlar jahon bozori 2034-yilga borib 223,4 milliard dollarga yetishi mumkin

// 16 June 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/azotli-o-g-itlar-jahon-bozori-2034-yilga-borib-223-4-milliar



2025 yilda azotli o‘g‘itlarning jahon bozori hajmi 135,4 milliard dollarga baholanmoqda. 2034-yilga kelib u 5,7% o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati bilan 223,4 milliard dollargacha o‘sishi mumkin. Bu haqda Precedence Research agentligi o‘z tadqiqotida ma’lum qildi.

2024-yilda mintaqaviy yetakchi — Osiyo-Okeaniya mintaqasi (ATR) bo‘ldi — bozorning 67,3 foizi shu hudud hissasiga to‘g‘ri kelgan. Pul ifodasida bu hajm 86,2 milliard dollarga teng deb baholangan, 2034-yilgacha esa 150,4 milliard dollargacha o‘sishi kutilmoqda. Dunyodagi eng katta aholi va qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab iqtisodiyotlar ATRda joylashgani o‘g‘itlarga bo‘lgan talabning o‘sishiga asosiy sabab bo‘lmoqda.

Shimoliy Amerika 11,64% ulush bilan jahon reytingida ikkinchi o‘rinni egalladi. Undan keyin Yevropa (8,46%), Lotin Amerikasi (7,75%) va Yaqin Sharq hamda Afrika davlatlari (4,83%) kelmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati